



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA TOMORQACHILIKNING O'RNI VA BU BO'YICHA ILG'OR TAJRIBALAR

Pardaev Mamayunus Qarshibaevich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i.f.d.

Abilov Feruz Nematullaevich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil Jurnal soni: 17 Maqola raqami: 62 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1412 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS tomorqa, kambag'allik, ishsizlik, bandlik, issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik, parrandachilik, inkubator, ko'chatchilik, sabzavotchilik, pomidor yetishtirish.	Maqolada Samarqand viloyati misolida kambag'allikni qisqartirishda tomorqachilikning o'rni va bu bo'yicha ilg'or tajribalar qarab chiqilgan. Shuningdek, viloyatining turli hududlarida tomorqadan foydalanishda qanday yo'nalishlar, xizmatlar samarali ekanligini ham tadqiq qilib, ulardan to'qqizta bo'yicha ilg'or tajribalar yoritilgan. Bularga issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik, parrandachilik (inkubator), ko'chatchilik (sabzavot ko'chati yetishtirish), sabzavot (pomidor yetishtirish) kabilar bo'yicha kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tegishli tajribalarni to'plashga muvaffaq bo'lingan. Ularni o'rganib, tegishli tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Maqolada Samarqand viloyati misolida kambag'allikni qisqartirishda tomorqachilikning o'rni va samarali yo'nalishlari batafsil tahlil qilingan. Maqolada viloyatning turli hududlarida tomorqa yerlaridan foydalanishning ijobiy tajribalari aniqlangan va ularning samaradorligi baholangan. Xususan, tomorqadan samarali foydalanish orqali aholining daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allik darajasini kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Viloyat aholisi tomorqalaridan foydalanishning to'qqiz yo'nalishi aniqlandi va ularning har biri bo'yicha ilg'or tajribalar yoritildi: issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik, parrandachilik (inkubator), ko'chatchilik (sabzavot ko'chati yetishtirish) va sabzavotchilik (pomidor yetishtirish). Ushbu yo'nalishlar bo'yicha to'plangan amaliy tajribalar orqali aholining oilaviy daromad manbalarini kengaytirish, yil davomida bir nechta hosil olish orqali barqaror daromad yaratish imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan. Maqolada shuningdek, tomorqa yerlaridan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida mamlakatimizda qabul qilingan prezident farmonlari, qarorlar va hukumat dasturlari tahlil qilingan. Xususan, 2017–2025 yillarda qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish, tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ular uchun imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar o'rganilgan. Bu tadbirlar aholini tomorqa yerlaridan faol foydalanishga jalb qilish, ish bilan bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirish imkoniyatini yaratgan. Maqola shuningdek, tomorqa yerlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish, aholining bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, mahalla fuqarolar yig'inlari va hokim yordamchilari faoliyatini kuchaytirish, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali tomorqachilarni rag'batlantirish, tajribali fermerlar va yetakchi tomorqa egalari orqali ilg'or texnologiyalarni ommalashtirish tavsiya etilgan.

Kirish. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishlaridan biri tomorqadan samarali foydalanishdan iboratdir. Aynan tomorqadan samarali foydalanish evaziga kambag'allikni qisqartirishga erishilib kelinmoqda. Buni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bir qancha farmon va qarorlarini qabul qilib, ushbu sohani yaxshilashga oid bir qancha dasturlar, "Yo'l xartialari" ishlab chiqildi va hayotga tatbiq qilinib kelinmoqda. Prezidentning 2017-yil 9-oktabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199 sonli Farmoni¹, 2018-yil 26-aprelda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680 sonli qarorlari ham qabul qilindi². Ushbu hujjatlarga asosan "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori ham qabul qilindi. Yuqoridagi qarorlar bilan "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida nizom" ham tasdiqlangan. Ko'rinib turibdiki, tomorqadan samarali foydalanish evaziga kambag'allikni qisqartirish bugungi unda o'ta dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Alohida qayd etish joizki, 2018-yil 26-aprel kuni qabul qilingan "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi hamda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzurida "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'arma"si tashkil etildi. Jamg'arma mablag'lari fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari 3 yil muddatga, shu jumladan, 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 2 foizlik bank marjasini hisobga olgan holda yillik 7 foiz stavkada kreditlar berish uchun "Mikrokreditbank" ATB, "Agrobank" ATB hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq bankiga resurslar joylashtirish, qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlash, ta'minlash, savdo tashkilotlari hamda lizing kompaniyalariga moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi texnikalari va transportlarini sotib olish, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari issiqxonalarini qurish uchun materiallar va butlovchi qismlar xarid qilishga kreditlar berish kabi maqsadlarga sarflanadi. Ushbu yaratilgan imkoniyatlardan Samarqand viloyatida ham tomorqadan foydalanish bo'yicha bir qancha muvoffaqiyatlarga erishildi. Bularning ayrimlariga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki bular ham mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Ammo viloyat miqyosida tomorqadan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199 sonli Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 aprelda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680 sonli qarorlari.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martda imzolangan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni

foydalanishda samaradorlikni oshirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartish bo'yicha erishilgan ijobiy tajribalar olimlarimiz tomonidan kam o'rganilgan va mos ravishda adabiyotlarda kam yoritilgan. Ushbu holat mazkur masala bo'yicha tadqiqot olib borishga va ularning ayrim ijobiy tajribalarini ochiq yoritishga sabab bo'ldi.

Adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda o'ziga xos bo'lgan qishloq hududlarida aholini ish bilan ta'minlash, mazkur hududda mehnat bozorining o'ziga xosligi, ishsizlik kabi muammolar respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur muammolar mamlakatimiz olimlaridan R.A.Ubaydullaeva, Q.X.Abdurahmonov, S.S.G'ulomov, M.M.Muhammedov, B.X.Umurzakov, M.Q.Pardaev, M.B.Kolonov, I.S.Tuxliyev, Z.Y.Xudoyberdiyev, Q.J.Mirzayev, D.Ortiqova, D.N.Rahimova, N.X.Rahimova, Sh.R.Xolmo'minov, N.Z.Zokirova, N.U.Arabov kabilar tomonidan tadqiq qilingan⁴. Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida mamlakatimiz aholisini ish bilan ta'minlash, o'zini-o'zi band qilish kabi yo'nalishlar o'z aksini topgan. Bugungi kunda qishloq aholisining kambag'alligini qisqarishida bandlikning o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalari, tomorqadan ham samarali foydalanish masalalari yetarli darajada ochib berilmagan. Ushbu holatlar mazkur mavzuda chuqur ilmiy-tadqiqot izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bundan kelib chiqib, Samarqand viloyatida qishloq aholisining tarkibiy o'zgarishlari va ularning kambag'allikni qisqartirishda tomorqadan foydalanish evaziga amalga oshirish yo'llari tadqiq qilingan⁵.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq aholisi bandligini ta'minlashda tomorqadan foydalanish masalalarini tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, abstrakt fikrlash, zamon va makon, monografik va mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, tegishli amaliy tavsiyalarni asoslashda monografik tahlil, amaliy yechimlar bo'yicha mantiqiy yondashuvlardan ham foydalanildi.

Natijalar. Bugungi kunda Samarqand viloyatining turli hududlarida tomorqadan foydalanishda qanday yo'nalishlar, xizmatlar samarali ekanligini tadqiq qilib, ulardan to'qqiztasi (issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik, parrandachilik (inkubator), ko'chatchilik (sabzavot ko'chati yetishtirish), sabzavot (pomidor yetishtirish) kabilar) bo'yicha tajribalarni to'plashga muvaffaq bo'ldik. Bular:

Birinchidan, Samarqand viloyatida Issiqxona yo'nalishi bo'yicha ham bir qancha ijobiy tajribalar mavjud. Jumladan, Samarqand viloyati Paxtachi tumani Quvondiq mahalla fuqarolar yig'inida 5 ta ko'cha, 581 ta xonadon, 3 ming 56 ta aholi mavjud bo'lib, shundan erkaklar soni 1 ming 497 ta, ayollar soni 1 ming 559 tani tashkil etadi.

Masalan, Quvondiq MFY Nurli ko'chasida yashovchi Egamberdieva Nodira 10 sotixli issiqxonadan 5 sotix maydonda pomidor mart-aprel oylarida 2,5 tonna yetishtirib ichki bozorda o'rtacha 10 ming so'mdan sotib

25 mln. so'm daromad qilishga muvaffaq bo'ldi. 5 sotix maydonda 20 ming dona ko'chatni fevral-mart oylarida ichki bozorga o'rtacha bir dona ko'chatni 1300 so'mdan sotib, qo'shimcha yana 26 mln. so'm daromad qildi. Bularning o'rniga takroriy ekinlar ekdi. 5 sotix maydonda pomidor ekib oktyabr oylarida 2,5 tonna yetishtirib ichki bozorda o'rtacha 3,0 ming so'mdan sotib 7,5 mln.so'm daromad qilishga muvaffaq bo'ldi. Bitta shu oilaning tomorqadan topayotgan jami daromadi 75-80 mln so'mni tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, "Quvondiq tomorqa xizmati 2022" MChJ tomonidan Quvondiq mahalla fuqarolar yig'inidagi tomorqa yer egalari elita urug'lar tarqatib undan yetishtirilgan F-1 urug'larini kooperatsiya asosidan sotib olish ishlarini yo'lga qo'ygan.

Ikkinchi yo'nalish Qulupnaychilik bo'yicha ham ma'lum tajribalar mavjud. Bunga Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 1-sektor hududida joylashgan Valijon mahalla fuqarolar yig'inida 5 ta qishloq, 847 ta xonadon, 4 ming 270 ta aholi mavjud bo'lib, shundan erkaklar soni 2 ming 190 ta, ayollar soni 2 ming 80 tani tashkil etadi. Valijon mahalla fuqarolar yig'ini umumiy yer maydoni 805 gektarni tashkil qiladi. Shundan aholi tomorqa yer maydoni 101,6 gektar bo'lib, shundan 38,5 gektarida qulupnay ekilgan. Mahalladagi 847 ta tomorqa yer egalari 804 tasida qulupnay ekilib, yuqori hosil olishga erishib kelmoqda.

Masalan, Valijon MFY Tog'aykusa qishlog'ida yashovchi Usmonov Qosim 9 sotixli issiqxonasida avgust oyi boshida qulupnay ko'chatini ekib mart-aprel oyida 2,5 tonna qulupnay yetishtirib ichki bozorda o'rtacha 30 ming so'mdan sotib 75 mln so'm may oyigacha daromad olishgan, May oyi boshida pamidor-bodiring ko'chatini ekib 9 tonna bodring mahsulotini ichki bozorda iyul oyida o'rtacha 4 ming so'mdan sotib 36 mln so'm daromad olishga erishadi. Shu yilning sentabr oyi o'rtalarida qulupnay ko'chatlarini orasiga sarimsoqpiyoz yetishtirish uchun urug' ekib fevral oyi boshida bir bog' ko'kat sifatida o'rtacha 5000 so'mdan sotib 5 mln so'm daromad olib, bir yillik daromadi 116,0 mln so'mni tashkil qiladi.

Valijon mahallasida may oyida o'rtacha hisobda 402,0 tonna qulupnay, 125,0 tonna pomidor, 101 tonni ichki Respublikamizning boshqa viloyat bozorlarga yetkakaziladi. Ushbu ishlarning yanada jonlanishiga yangi tashkil qilingan hokim yordamchilarining roli ham sezilmoqda. Valijon mahalla fuqarolar yig'inida hokim yordamchisi tomonidan 99 mln so'mlik issiqxona tashkil etish uchun ijobiy tavsifnoma berilib, 99 mln so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari asosida tashkil etilgan dehqon xo'jaliklariga 15,5 gektar maydonga "Bir kontur bir maxsulot" tamoiili asosida qulupnay yetishtirilgan bo'lib, Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari kengash jamg'armasining imtiyozli kredit asosida 30,0 mln so'mga issiqxona qurilish rejalashtirilgan. Bularning ham hammasi faqat tomorqadan foydalanish evaziga kambag'allikdan chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, mahalla "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" dagi 79 nafar ishsiz fuqarolarga 2022 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2021 yil 20-sonli qarori asosida tashkil etilgan dehqon xo'jaliklariga 15,5 gektar maydonga "Bir kontur bir maxsulot" tamoiili asosida qulupnay yetishtirilgan bo'lib, Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari kengash jamg'armasining imtiyozli kredit asosida 30,0 mln so'mga issiqxona qurilish rejalashtirilgan. Bularning ham hammasi faqat tomorqadan foydalanish evaziga kambag'allikdan chiqish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha 30,0 mln so'm qo'shimcha resurs talab etiladi. Mahalladagi xokim yordamchisi tomonidan 17 ta ishsiz fuqarolar qulupnay kuchatlarini olish uchun subsidiyaga tavsiyalar berilgan. Hozirgi kunda jami 147 ta rasmiy ishsiz aholining 147 nafari dehqon xo'jaliklari mehnat qilib bandligi ta'minlangan.

Uchinchi yo'nalish uzumchilik bo'yicha ham bir qancha ijobiy tajribalar mavjud. Bunga misol qilib, Samarqand viloyati Ishtixon tumani Chaqar mahalla fuqarolar yig'inidagi tomorqa yegalarini misol qilib olish mumkin. Bunda 12 ta ko'cha, 858 ta xonadon, 4 ming 119 ta aholi mavjud bo'lib, shundan erkaklar soni 1 ming 941 ta, ayollar soni 2 ming 178 tani tashkil etadi.

Tumanda aholi tomorqalarida jami 2 ming 933 gektar uzumzor mavjud bo'lib, shundan 21 ta MFYdagi aholi xonadonlari tomorqalarining 67-90 foizigacha bo'lgan maydonida uzum ekiladi. Chunki tumanning bir qismi asosan dasht zonadagi MFYlarga to'g'ri kelib, uzumning mayizbop "Kora kishmish" navi ekiladi.

Tumandagi Chaqar mahalla fuqarolar yig'ini umumiy yer maydoni 315,0 gektar bo'lib, shundan aholi tomorqa yer maydoni 193,8 gektarni tashkil qiladi. Ushbu mahalladagi 772 ta tomorqa yer egalari 140 gektar yer maydoniga asosan uzum ekiladi va hosil olinadi. Bu yerda ham tajribali dehqonlar mavjud Jumladan, Yoshlik MFY Tantana ko'chasida yashovchi Axmedov Nasim 28 sotixli tomorqasida uzum yetishtirib ichki bozorda o'rtacha hisobda 5 ming so'mdan sotib 20 mln. so'm daromad qiladi. Bundan tashqari, mayiz ham qilib sotadi. 1 tonna mayiz mahsulotini ichki bozorda o'rtacha hisobda 25000 so'mdan sotib 25 mln so'm daromad olishga erishadi. Bir yillik daromadi 20-25 mln so'mni tashkil qiladi.

Butun Chaqar mahallasida avgust oylarida o'rtacha hisobda 16800,0 tonna uzum yetishtiriladi. Bularning hammasi ichki bozorda sotilib aholi tegishli miqdorda daromadga ega bo'ladi. Ushbu mahalla fuqarolariga hokim yordamchisi tomonidan 700 mln so'mlik bog'dorchilik tashkil etish uchun ijobiy tavsifnoma berilib, 500 mln so'm imtiyozli kredit mablag'lari asosida bog'dorchilik yanada kengaytirildi. Shuningdek, mahalla "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" dagi yuzlab nafar ishsiz fuqarolarga kooperatsiya asosida Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari Ishtixon tumani Kengashi qoshidagi "Bolqi tomorqa xizmati" tomonidan 140 gektar imtiyozli kredit asosida 500 mln so'mga uzum ko'chati yetkazib berilgan. Hozirgi kunda jami 858 ta xonadon egasining 772 nafari uzumzori bo'lib, shu yerning o'zida bandligini ta'minlab tegishli miqdorda daromad qilmoqda.

⁴ Pardaev M.Q., Pardaev O.M. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 68 bet.; Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda. O'zini o'zi band qilish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 72 bet.

⁵ Pardaev M.Q., Pardaev O.M. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 68 bet.; Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda. O'zini o'zi band qilish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 72 bet.

To'rtinchi yo'nalish, bu Asalarichilik yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Mazkur sohada ham ilg'or tajribali tomorqa yegarlari mavjud. Jumladan, Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Kaptarxona mahallasida yashovchi Djumanov Orifjon asalari oilalarini parvashlab, asal, asalari mumi, propolis, asalari suti yetishtirishga muvaffaq bo'lmoqda. Bularni shu hududdagi xonadonlarga tarqatadi. Aholi tomorqalari bilan kooperasiyani yo'lga qo'ygan. Boshqa mahallalarga ham asalari oilalarini yetishtirib beradi.

Tarqatgan asalari oilalari va uyalarini soni shu hududda 3000 tadan oshgan. Kelgusida fermerlar kengashi huzuridagi jamg'armadan 300 mln so'm imtiyozli kredit olib, tumanda asalarichilik bo'yicha o'quv markazini tashkil qilish bilan shug'ullanmoqda. Shu tariqa u o'z foylatini kengaytirish bilan birga ilg'or tajribalarni ham ommalashtiradi.

Aslida ushbu hudud sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan. Mazkur mahalladagi xonadonlar tomorqadan ikki-uch marta hosil olish bilan birga, 4-5 tadan asalari uyalarini boqib qo'shimcha daromad qilishayapti. Bunga bitta misolni shu mahallada yashovchi namunali tomorqa yer egasi Djumanov Orif bobo xonadonini keltirish mumkin. Bu kishi turmush o'rtog'i va o'g'li bilan birga 20 sotix tomorqaga ega. Ushbu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, har yili 115 mln so'mgacha daromad topayapti. Bundan tashqari 1 sotix issiqxonasi bo'lib, undan bir yilda uch marta hosil oladi. Asalari oilalarini boqish bilan birga inkubatorlarga ham ega. Bunda parranda parvarishlaydi va bundan ham tegishli daromad qiladi. Shuningdek, qisqagina joyda bo'rdiqi qo'y boqadi hamda tomorqasida baliq chavaqlarini xam yetishtiradi. Bularning hammasi oilaga anchagina daromad keltiradi.

Kaptarxona mahallasida jami 941 ta xonadon bo'lib, shundan 320 ta xonadonda asalari oilalari va parranda yetishtiradi. Shu bilan birga 50 dan ziyod xonadonlarida issiqxona mavjud bo'lib, issiqxonalarda pomidor, bodring, bulgor qalampiri, ko'katlar ekiladi. Ko'rinib turibdiki, imkon qidirganlar imkon topadi. Bundaylar hech mahal birovga qaram bo'lib kambag'al bo'lib ham qolmaydi.

Beshinchidan, Quyonchilik bo'yicha tomorqadagi sharoitni ham qarab chiqamiz. Buning uchun ham tadqiqot ob'ekti qilib, Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Yangibod mahallasida yashovchi Umirzoqova Mexrinso xonadonida intensiv quyon boqib, aholiga tiriklay va go'sht shaklida sotadi. Ushbu shaxs ham aholi tomorqalari bilan kooperasiyani yo'lga qo'ygan. Bu kishini mahalladoshlari lider tadbirkor, deb nom qo'yilgan. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, boshqa mahallalarga ham quyon va quyon go'shti muntazam ravishda yetkazilib turilar ekan. Fuqaro M.Umirzakova – o'z xonadonida 1000 bosh "Xikol" zotli quyon boqib, uni mahalladoshlariga sotib, zotini ham ko'paytirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu kishi shaxsiy tomorqasida quyonchilikdan tashqari kartoshka, sabzi, pomidor, bulg'or qalampiri, baklajon va piyoz ekib, o'ziga ajratilgan joydan 2 marotaba hosil olmoqda. Shuningdek, to'qsonbosti usulida sarimsoqpiyoz ekib keladi va undan ham oilaga daromad qilmoqda. Bundan tashqari xonadonida 4 bosh mol, 4 bosh qo'y, 15 bosh parranda mavjud bo'lib, 7 nafar oila a'zolarining 4 nafari doimiy ish bilan band. Xullas, M.Umirzakova yiliga 200-250 mln so'm daromad olib kelmoqda.

Mazkur oila mahalladoshlariga ham o'rnak bo'lib, ularning daromadining oshishiga ham sezilarni hissa qo'shib kelmoqda. Asli sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan mazkur mahalladagi xonadonlar tomorqadan ikki-uch marta hosil olish tajribasiga ega. Endilikda shu bilan birga, 25-50 boshdan quyon boqib qo'shimcha daromad qilish imkoniyatlarini ham qo'lga kiritibdi.

Oltinchidan, Baliqchilik bo'yicha ham Samarqand viloyatida ibratli tajribalar to'planmoqda. Xususan, Samarqand tumani "Shurboyicha" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Karimoov Orifjon xonadonida 2 sotixli tomorqadan asosan issiqxona usulida mahsulot yetishtirayotgan edi. Oxirgi paytlarda ushbu ishga qo'shimcha 2 sotixli sun'y xavzada baliq boqishni yo'lga qo'ydi. Xozirgi kunda Karimoov Orifjon xonadonida 2 sotixli sun'y xavzada 7000 dona afrika laqqasi boqilmoqda. Xar bir baliqning sof og'irligi o'rtacha 1.5 kg dan 3 kg gacha to'g'ri keladi. Bularning bozordagi o'rtacha baxosi xar bir kilogrami uchun 15 – 20 ming so'mdan sotilmoqda. Bir yilda ushbu oila 15 ming 750 kg baliqni o'rtacha bozor narxida sotib, 275.6 mln so'mni daromad qilibdi. Ushbu ishlarga jami 120 mln xarajat qilib, bir yilda 155.4 mln so'm sof foyda olishga erishgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yettinchi yo'nalish Parrandachilik (inkubator) bo'yicha ham tomorqachilar sezilarli daromad qilinmoqda. Bu bo'yicha Samarqand viloyati Urgut tumani Savg'on mahallasida yashovchi Esanov Xatytmurod oilasining tajribasi e'tiborga molik. Bu kishi inkubatorida

jo'ja ochirish bilan shug'ullanadi. Tuxumini aholidan sotib olib inkubatorida ochiradi. Bir ochishda 5 ming dona jo'ja ochirib xonadonlarga tarqatadi. Shu tariqa aholi tomorqalari bilan kooperasiyani yo'lga qo'yib, boshqa mahallalar aholisi bilan ham ishlab, ularga ham jo'ja tarqatadi. Aholiga tarqatilgan tovuqlari soni 50 mingdan oshgan. Shu tariqa aholini tuxum va paranda go'shti bilan ta'minlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Hozirgi kunda fermerlar kengashi huzuridagi jamg'armadan 300 mln. so'm imtiyozli kredit olib, yangi inkubator tsexi qurib faoliyatini kengaytirish bilan shug'ullanmoqda. Natijada sabzavot va kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan mazkur mahalladagi xonadonlar tomorqadan ikki-uch marta hosil olish bilan birga, 50-100 boshdan tovuq boqib qo'shimcha daromad qilishmoqda. Bugungi yaratilgan sharoitdan har bir kishi foydalansa bo'ladi. Biroq, juda ko'pchilik aholi o'zlariga ham befarq olib borib bergan tayyor tovuqlardan samarali foydalanish imkoniyatini ham qo'ldan boy berganlar ham yo'q emas. Ko'rinib turibdiki, bu borada ham aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish maqsadga muvofiq.

Agar harakat qilinsa bugungi kunda juda katta imkoniyatlarimiz mavjud. Jumladan, shu mahallada yashovchi namunali tomorqa yer egasi Akmal akaning 12 sotix tomorqasi bor, har yili 85-90 mln so'mgacha daromad olib kelmoqda. Yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib qo'shimcha 2 sotix issiqxona qurib, uch marta hosil oladigan bo'ldi. Shu bilan birga yana parranda parvarish qilib ham daromad manbaini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Umuman olganda ushbu Savg'on mahallasi aholisi jami 1 ming 488 xonadon yashaydi. Shundan 15 ta xonadonda issiqxonada mahsulot yetishtiradi. Issiqxonada limon, pomidor, bodring, bulgor qalampiri, ko'katlar ekadi. Ularning daromadlari bimalol o'zlarini o'zlariga yetadi. Ko'rinib turibdiki, har kishining farovonligi, o'zining faolligiga, ishbilarmanli-giga ham bog'liq ekan. Aholi ruhiyatiga ishbilarmanlik, faollik, o'zining oldida o'z mas'uliyatini oshiradigan ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qilishimiz maqsadga muvofiq.

Sakkizinchi yo'nalish Ko'chatchilik (sabzavot ko'chati yetishtirish) bilan bog'liq. Bu borada ham Samarqand viloyatida yetarlicha tajribalar orttirilgan. Misol uchun Toyloq tumani Talliota mahallasida yashovchi Akilov Saidamir xonadonida sabzavot ko'chatlari yetishtirib, aholiga sotadigan yo'nalish ibratga loyiq. Aholi tomorqalariga sabzavot ko'chatlari yetishtirib sotishni yo'lga qo'ygan ushbu tadbirkor, boshqa mahallalarga ham ko'chat yetkazib bermoqda. Saidamir Akilov asli o'z xonadonida turli xil sabzavot ko'chatlari yetishtirishni yo'lga qo'ygan holda, elga xizmat qilib, o'zi ham mo'maygina daromad qilishga o'rgangan. Shaxsiy tomorqasida bir yilda 4 marta sabzavot ko'chatlari yetishtiradi, bundan tashqari kartoshka, karam, sabzi, pomidor, bulg'or qalampiri, baklajon ekib xosil olib, uni bozorda sotib ham daromad qilar ekan.

Sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan mazkur mahalladagi xonadonlar tomorqadan ikki-uch marta hosil olish bilan birga Saidamir Akilov tajribasidan foydalanib, ular ham sabzavot ko'chatlari yetishtirib qo'shimcha daromad qilishayapti. E'tiborli jihati shundaki, mazkur oilada yuqoridagilardan tashqari xonadonida 2 bosh qora mol, daraxtlardan 15 tup gilos, 5 tup anor, 2 tup o'rik, 5 tup shaftoli, 5 tup nok, 5 tup murud, 10 olvoli, 7 tup yong'og, uy ichida tuvakka (2 tup mandarin, 2 tup limon) mavjud bo'lib, 6 nafar oila a'zolarining 4 nafari doimiy ish bilan band. Shunga yarasha tegishli daromad ham qilib kelmoqda. Mazkur oilada tegishli infratuzilma ham yetarli darajada tashkil qilingan. Chunki turli yo'llar bilan Saidamir Akilov yiliga 100-150 mln so'm daromad olib kelmoqda.

To'qqizinchi yo'nalish sifatida sabzavot (pomidor yetishtirish) bo'yicha ayrim tajribyalarni keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bunga misol tariqasida Samarqand viloyati Toyloq tumani O'zbekiston mahallasida yashovchi Suvonov Mirzoqul bobo tajribasini keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu kishining ixtiyorida 0,13 ga tomorqa yeri mavjud bo'lib, bu asosan sabzavot ekiniga mo'ljallangan. Tahlillar ko'rsadiki, ushbu yer maydonidan samarali foydalanib yilliga ikki marotaba hosil olib yil davomida 72,0 mln.so'm daromad ekan.

Bu mahalla aholisi ham tomorqalari bilan kooperasiyani yo'lga qo'ygan. Boshqa mahallalarga ham turli ko'chatlar bilan birga asalari oilalarini ham tarqatadi. Ushbu mahalla sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lganligi tufayli mazkur mahalladagi xonadonlar tomorqadan ikki-uch marta hosil olish evaziga ham qo'shimcha daromad qilishayapti. Bunga yana o'sha Suvonov Mirzoqul bobo tajribasini keltirishimiz mumkin. Bu kishi namunali tomorqa yer egasi sifatida faoliyat olib boradi. Turmush o'rtog'i va o'g'li bilan birgalikda 13

sotix tomorqasidan har yili 70-80 mln so'mgacha daromad topayapti. Qo'shimcha ravishda 1 sotix issiqxonada uch marta hosil olar ekan, bo'rdiq qo'y larni boqish bilan birga tomorqasida baliq chavaqlarini xam yetishtirish bilan shug'ullanar ekan. Mana sizga ish o'rni, mana daromad manbai. Xullas, O'zbekiston mahallasida jami 941 ta xonadon bor, shundan 320 ta xonadonda asalari oilalari va parranda yetishtiradi. Shu bilan birga 50 dan ziyod xonadonlarida issiqxona mavjud bo'lib, issiqxonalarda pomidor, bodring, bulgor qalampiri, ko'katlar ekib, o'zlarining ise'moli bilan birga bozorlarga sotib qo'shimcha daromad ham qilishadi.

Yana bir yo'nalish, aholi tomorqalarida artezian quduqlar qazish bo'yicha ilg'or tajribalar. Buni ayrim tumanlar misolida ham qarab chiqishimiz mumkin. Biz tadqiqot ob'ekti qilib, Narpay, Qo'shrabot, Urgut tumanlarini oldik. Chunki tomorqa masalasi shu hududlarda rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, ular viloyatning cheka hududlari hisoblanadi.

Narpay tumani tajribasi. Guliston MFYning o'zida 4 ta katta hajmdagi artezian quduq burg'ulab ishga tushirilishi natijasida 135 ga yaqin tomorqalarning 10.4 gektar yer maydonlari suv bilan ta'minlashga erishilgan. Boshqacha qilib aytganda 174 nafar fuqarolarning o'z tomorqalarida bandligi ta'minlandi. Misol uchun mazkur tumanning Guliston MFYda yashovchi Maxmudov Eshmamat tashabbusi bilan qazilgan katta hajmdagi artezian quduq suvidan ushbu hududda joylashgan 31 nafar tomorqa yer egalari yiliga suv bilan ta'minlandi.

Qo'shrabot tumani tajribasi. Bunga birgina misol qilib, Katta Oqmachit MFY da amalga oshirilgan ishlarni aytish mumkin. Ushbu hududning o'zida 1 ta katta hajmdagi artezian quduq burg'ulab ishga tushirildi. Natijada 32 nafar tomorqa yer egalari yiliga 5 gektar yer maydonlari suv bilan ta'minlashga erishildi. Boshqacha qilib aytganda fuqarolarning o'z tomorqalarida bandligi ta'minlandi. Viloyatda ushbu tuman eng suv tanqis bo'lgan tumanlardan biri hisoblanadi. Katta Oqmachitda yashovchi Rabbimov Nuriddin tashabbusi va tajribasi boshqa hududlarga ham namuna sifatida joriy qilinmoqda.

Urgut tumani tajribasi. Mazkur tumanda ham barcha sohalar bo'yicha ham juda ko'p tajribalar mavjud. Jumladan, Terak MFYning o'zida 3 ta katta hajmdagi artezian quduq burg'ulab ishga tushirildi Buning natijasida 105 ga yaqin tomorqachilarning 17 gektar yer maydonlari suv bilan ta'minlashga erishildi. Aniq bir misol, Terak MFYda yashovchi Raximov Mirsharif tomonidan qazilgan katta hajmdagi artezian quduq suvidan ushbu hududda joylashgan 30 nafar tomorqa yer egalari yiliga suv bilan ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda fuqarolarning o'z tomorqalarida bandligi ta'minlanish bilan birga daromadlari oshib, farovonlikka erishishning yo'llari aholidan, ular yashaydigan hududdan uzoqda emasligiga amin bo'lishdi⁶.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyatida aholining tomorqachilikdan foydalanishi kambag'allikni kamaytirish va oilaviy daromadlarni oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'rganilgan misollar orqali issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik va parrandachilik yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi oilalarning yillik daromadlari sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Masalan, issiqxonalarda pomidor va sabzavot yetishtirish, shuningdek qulupnaychilik orqali oilaviy daromadlar bir necha barobar ko'paygan. Bu natijalar Toshkent, Farg'ona va Namangan viloyatlarida o'tkazilgan shunga o'xshash tadqiqotlar bilan ham mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 aprelda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680 sonli qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martda imzolangan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tomorqachilikning samaradorligi nafaqat olingan hosilga, balki o'rnatilgan texnologiya va resurslardan samarali foydalanishga ham bog'liq. Masalan, artezian quduqlari orqali sug'orishning tashkil etilishi hosildorlikni oshirish bilan birga, oilaning ish bilan bandligini ham ta'minlagan. Bu esa ilg'or tajribalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolardan biri — ayrim tomorqachilarning yetarli moliyaviy resursga ega emasligi va innovatsion texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi bo'ldi⁷.

Bundan tashqari, mahalliy hokimlik va fuqarolar yig'inlarining ko'maklashuvi, davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar va subsidiyalarning tomorqa egalari faoliyatini rag'batlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari mamlakat miqyosidagi qishloq xo'jaligi rivojlanishi va kambag'allikni kamaytirish dasturlari bilan uyg'unlikda ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tomorqachilik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Bandlikni oshirish, oilaviy daromadlarni barqarorlashtirish va kambag'allikni kamaytirish bilan birga, aholining ishga bo'lgan motivatsiyasi va mehnatsevarlik darajasini ham oshiradi. Shu bilan birga, aholining o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun tajribali fermerlar va yetakchi tomorqa egalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur.

Xulosa. Samarqand viloyatida kambag'allikni qisqartirishda tomorqachilikning o'rni juda katta ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu bo'yicha bir qancha yo'nalishlarda ilg'or tajribalar ham keltirildi. Bularning hammasi mamlakatimiz aholisiga, ayniqsa tomorqadan foydalanishda joriy qilishga loyiq deb baholaymiz. Samarqand viloyatida kambag'allikni qisqartirishda tomorqachilikni rivojlantirish bo'yicha to'qqizta yo'nalish (issiqxona, qulupnaychilik, uzumchilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik, parrandachilik (inkubator), ko'chatchilik (sabzavot ko'chati yetishtirish), sabzavot (pomidor yetishtirish) kabilar) bo'yicha amalga oshirilgan tajribalardan ko'rinib turibdiki, agar tomorqadan samarali foydalaniladigan bo'lsa, kambag'allikni qisqartirishga mahalliy imkoniyatlar evaziga ham keskin kamayishiga erishish mumkin.

Tomorqadan samarali foydalanish orqali farovonlik zanjirini tashkil qilish mumkinligiga amain bo'ldik. Tomorqani foydalanish holatiga keltirish yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ish bilan bandlikni ta'minlaydi. Oilaga qo'shimcha daromad keltiradi va kambahallik chegarasidan chiqish imkoniyatini ham yaratadi. Shu tariqa aholining farovonligi o'zi yashab turgan joyning o'zida oshib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Aholi tomorqalarida artezian quduqlar qazish bo'yicha ilg'or tajribalaridan ham samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Buni Samarqand viloyatining Narpay, Qo'shrabot, Urgut tumanlari tajribasidan ham ko'rish mumkinki, ushbu hududlarda tomorqani suvli holatga keltirib, kengaytirish evaziga aholini ish bilan ta'minlab, bandlik muammosini hal qilish va kambag'allikni qisqartirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Mamlakat aholisi, ayniqsa qishloq hududlarda joylashgan qismi birgina tomorqadan samarali foydalanish mexanizmini o'zlashtirib olsa, mamlakatimizda bandlik muammosi tezroq hal bo'lgan bo'lardi, kambag'allik darajasi ancha qisqarib, aholining farovonligiga erishish imkoniyati yaratilgan bo'lar edi.

oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi pq-4653-sonli qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 27 yanvarda "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni

⁶ Pardaev M.Q., Pardaev O.M. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamSI. – 2020. – 68 bet.; Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda. O'zini o'zi band qilish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamSI. – 2020. – 72 bet.

⁷ Pardaev M.Q., Pardaev O.M. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamSI. – 2020. – 68 bet.; Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda. O'zini o'zi band qilish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamSI. – 2020. – 72 bet.

tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.03.2018 yildagi 205-son

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi PF-22-sonli "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

8. Pardaev M.Q., Pardaev O.M. Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 68 bet.

9. Pardaev M.Q., Pardaev Olim, Pardaeva Ozoda. O'zini o'zi band qilish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 2020. – 72 bet.

10. Yuriy Kochetkov / EPA / Scanpix / LETA.